

Peshku tuman maxalliy budjetlardan mablag oluvchi tashkilot va korxonalariga ichimlik suvini yetkazib berish va suvlarni uzatish xizmatlari bo'yicha

ShARTNOMA № 36

Peshku tuman

«25» yanvar 2022yil.

“Peshku Suvokava” IChDK, keyingi o‘rinlarda “Ta‘minotchi” deb yuritiladi. O‘zining ustav asosida ish yurituvchi M.Axmedov nomidan, bir tomondan va Peshku tuman maktabgacha ta‘limi bulimi Markazlashgan keyingi o‘rinlarda “Istemolchi” deb yuritiladi, O‘zining ustav asosida ish yurituvchi Peshku tuman Davlat solik inspeksiyasi boshlig‘i A.Kamolov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. ShARTNOMANING MOXIYATI

1.1 “Ta‘minotchi” «Iste‘molchi»ga ichimlik suvni yetkazib berish va oqova suvlarni qabul qilish (agar tegishli okava tarmogida ulangan bulsa) majburiyatini o‘z zimmasiga oladi, «Iste‘molchi» yetkazilgan ichimlik, oqova suvlardan samarali va oqilona budjetda nazarda tutilgan mablag‘ doirasida foydalanadi. «Iste‘molchi» o‘z o‘rnida amalda qo‘llanilayotgan tariflar asosida va ushbu Shartnomada qayd etilgan shartlari bo‘yicha «Ta‘minotchi”ga xizmat to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lash majburiyatlarini oladi.

1.2 «Iste‘molchi» tomonidan oqova tarmog‘ida tashlangan oqova suvlar miqdori "Ta‘minotchi" va «Iste‘molchi» tomonidan o‘zaro hal qilib qabul qilinadi.

1.3 Ichimlik suvni yetkazib berish va oqova suvlarni uzatish bo‘yicha tomonlarning xuquqlari va majburiyatlari amaldagi «O‘zbekistan Respublikasida kommunal suv ta‘minoti va oqova suvlarni uzatish tizimlaridan foydalanish qoidalari» ga (matn davomida «qoidalar») va ushbu sohadagi O‘zR.ning boshqa me‘yoriy xujjatlari asosida aniklanadi.

II. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. «Ta‘minotchi»ning xuquq va majburiyatlari:

2.1.1 «Iste‘molchi» ni shahar suv va oqova suv tarmog‘iga ulangan injener-texnik vositalari orqali kommunal tarmog‘idan foydalanish chegarasigacha ichimlik suvi bilan ta‘minlaydi va oqova suvlarni (agar tegishli oqova tarmog‘iga ulangan bo‘lsa) uzatadi. Kommunal tarmog‘idan foydalanish chegarasi, «Iste‘molchi» ning shahar ichimlik suv va oqova suv uzatish tarmog‘iga ulangan joyidir.

«Iste‘molchi» ning tarmoqqa ulangan joyigacha bo‘lgan ichimlik suv va oqova suvlarni uzatish tarmog‘ini ta‘mirlash, qayta tiklash, kengaytirish, yangilanish hamda halokatlarni va barcha suv quvurlarni bartaraf etish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Shahar suv va oqova suv tarmog‘ida ta‘mirlash va boshqa turdagi ishlarni olib borilayotgan hollarda, hamda to‘lov xujjatlarni to‘lanmagan va ushbu shartnomaning shartlari «Iste‘molchi» tomonidan bajarilmagan hollarda, «Iste‘molchi» ni oldindan ogoxlantirilib, ichimlik suvni berish va oqova suvni uzatishni to‘xtatadi.

«Suvoqova» korxonalarida elektr quvvati bilan ta‘minlash to‘xtatilganda;

Tabiiy ofatlar yuz berganda;

Shahar suv tarmog‘ida kuchli halokatlar yuz berganda.

«Iste‘molchi» ning suv tarmog‘ini va inshootlarini loyixasiga asoslanib «Iste‘molchi»ning ichki suv ta‘minlash tarmog‘ini va suv o‘lchash asboblari holatini nazorat qilib boradi va ularning to‘g‘ri texnik foydalanish va saqlanish shartlarni amal qilinishini talab qiladi.

Suv o‘lchash asboblarni ko‘rsatgichlarini va ularni muxrlarning saqlanishini va butunligini kuzatib boradi.

Iste'molchilarning guruxlariga qarab suv yetkazib berish va oqova suvlarni uzatish xizmatlari uchun (agar tegishli oqava tarmog'iga ulangan bo'lsa) belgilangan tariflar asosida to'lov hujjatlarini taqdim etadi.

«Iste'molchi»ga ichimlik suvning va oqova suvlarni uzatish tariflarini o'zgartirish to'g'risida ularni amal qilish muddatidan kamida 15 kun avval ommaviy axborot vositalari orqali xabar beradi.

«Iste'molchi»ga amal qilish uchun ko'rsatmalarni va «Iste'molchi»ning vakili bilan tasdiqlanishi zarur bo'lgan dalolatnomalarni taqdim etadi. «Iste'molchi» yuqorida aytilgan hujjatlarga qo'l qo'yishdan bosh tortsa u hollarda tushunmovchilik bayonnomasi tuziladi va u Xo'jalik sudiga ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda topshiriladi.

«Iste'molchi»ni **2022 yil** davomida budjet ajratilgan mablag' doirasida **belgilangan 75.kub 331 500 (uch yuz o'ttiz bir ming besh yuz) so'm** miqdorda ichimlik suvi bilan ta'minlaydi. Shartnoma tuzilgan davrda **1 m.kub** suvning umumiy narxi **4420 sumni** tashkil qiladi

«Ta'minotchi» xar o'yning 1 sanasigacha utgan oyda kursatilgan xizmat schyot fakturalarini «Iste'molchi»ga takdim qiladi.

2.2 «Iste'molchi» ning xuquqlari va majburiyatlari:

2.2.1. Uziga tegishli suv yetkazish va oqova suvlarni uzatish tarmog'ining va inshootlarning texnik holatini va foydalanishini kerakli ravishda nazorat qiladi va o'z hududida ichimlik suvning barcha turdagi oquvlarini va samarasiz foydalanishini bartaraf qilish uchun tegishli tadbirlarni amalga oshiradi.

Shahar suv bilan ta'minlash yoki oqova suvlarni uzatish tarmog'iga ulanishdan oldin, «Ta'minotchi»dan texnik shartlarini oladi, unga suv ta'minlash yoki oqova suvlarni uzatish tarmog'ining loyixasini va o'ziga qarashli shahar suv tarmog'iga ulangan barcha ob'ektlarning joylashishini taqdim etadi, xamda shahar suv yoki oqova suvlarni uzatish tarmog'iga ulanish tarmog'iga ulanish yoki undan uzilish harajatlarini o'z zimmasiga oladi.

Suv o'lchash yig'masini (suv o'lchash va o'chirish asbobi) har bir shahar suv tarmog'iga ulangan quvuriga, qoida asosida qulay va ximoyalangan joyga o'rnatadi. Suv ulash yig'masini uz hisobidan harid qilina va uning zimmasiga yuklanadi.

Suv o'lchagich yig'masidagi muxrlarning saqlanishini nazorat qiladi va buzilgan yoki suv o'lchagich ishdan chiqqan hollarda «Ta'minot» ga uch kun ichida yozma ravishda xabar beradi. Suv o'lchash asboblari «O'zstandart» organlari yoki ularning vakolatli organlari tomonidan tekshirilishini va muxrlanishini, hamda doimiy tekshiruvdan o'tishini o'z hisobidan ta'minlaydi.

Suv o'lchash asbobini ta'mirlash yoki almashtirish va tekshirish maqsadida yechib olishdan oldin. «Ta'minot»chiga xabar beradi va uning vakili bilan suv o'lchagichni oxirgi ko'rsatmalarni tasdiqlaydi.

«Ta'minotchi» vakilini suv o'lchash asbobi o'rnatilgan joyini va suv tarmog'ini ko'zdan kechirishni ta'minlashi shart.

O'z xududidagi suv tarmog'ini loyixasini o'zgarishini va sub-mijozlarning ulangan hollarini «Ta'minotchi» ga xabar beradi va aloxida suv o'lchagich asboblarni va «Suvoqova» bilan tegishli shartnomani tuzishni talab qiladi.

Shahar suv tarmog'iga noqonuniy ulangani va o'z xududidagi ichimlik suvi bilan behisob sarflangani uchun qoida 4.13. bandi asosida javob beradi.

Har o'yning 20-chidan to 25-gacha hisobot oyida sarflangan ichimlik suvi bo'yicha vakolatli shaxslar tomonidan va muxrlangan ravishda tasdiqlangan Dalolatnomani «Ta'minotchi»ga topshiradi. Xisobot belgilangan vaqtda yetkazilmagan holda ichimlik suv sarfi avvalgi oyga qarab hisoblanadi, berilgan ma'lumotlar kamaytirilgan hollarda esa ichimlik suv sarfi davri uchun shartnomaning 3.2. bandiga asosan hisoblanadi.

Budjet tashkilotlari ichimlik suv to'lovlari uchun belgilangan moddiy limitlarga amal qilishadi.

O'z qarori bilan ichki suv yetkazish tarmog'iga, inshootlariga va suv o'lchagich asboblari ga javobgar shaxsni belgilaydi va u to'g'risida «Ta'minot» ga o'z vaqtida ma'lumot beradi.

III. XIZMAT XAKI, TO'LOVLAR TARTIBI

3.1. Sarflangan suv uchun xisob-kitob «Iste'molchi» ning suv o'lchagich ko'rsatkichlari asosida olib boriladi. Agarda suv o'lchagich asbobi ishdan chiqqan bo'lsa, birinchi oy sarflangan suv miqdori oxirgi uch oy davrida bo'lgan o'rtacha oylik sarfi bo'yicha belgilanadi. Agar bir oy davomida «Iste'molchi» ning suv o'lchagich yig'malarida nosozlik yoki muxrning yo'kligi (buzilganligi) bartaraf qilinmagan bo'lsa, ichimlik suvni sarfi quvurning kesimi ish rejimi sarf qobiliyati asosida xisoblanadi.

3.2. Ulangan quvurning kesimi bo'yicha kunlik suv sarfi quyidagi formula bo'yicha xisoblanadi: $Q=2.65 \times F \times t \times N$, bunda R- kuvurning ko'ndalang kesim maydoni (mm²) 1-vaqt, N-suv bosimi (m). Budjet tashkilotlari uchun quvurning kesimi asosida xisoblangan suv sarfi har kuni 8 soat belgilanadi.

3.3. «Ta'minotchi» ga «Iste'molchi» ichimlik suvi yetkazish va boshqa xizmatlari uchun budjetdan ajratilgan mablaglar doirasida, oylik summaning 100 %i oldindan avans tarikasida tulanadi. Iste'mol kilingan ichimlik suvi uchun kolgan yakuniy tulov, xisob - fakturalor kabul kilingandan sung 30 kun mobaynida amalga oshiriladi. Xisob-kitoblar naxd pulsiz pul kuchirish yuli bilan amalga oshiriladi. Qarzdorlik mavjud bo'lgan xollarda har chorak, zaruriyat bo'lganda, har oy qarzdorlik bo'yicha dalolatnoma tuziladi.

3.4. «Iste'molchi» o'z o'rnida amalda qo'llanilayotgan ta'riflar asosida hamda 2021 yilda budjetda ko'zda tutilgan oyma-oy mablag'lar doirasida va oqava suvlari uchun ilova kilinadigan grafik asosida budjetda ajratilgan mablag'lar hisobidan hak to'lashni o'z zimasiga oladi

3.5. Budjet tashkilotining yil davomida smeta harajatlariga kiritiladigan o'zgarishlar doirasida xizmat ko'rsatuvchi, xizmat oluvchi va xizmat xaqini To'lovchilar tomonidan o'zaro kelishilgan xolda shartnoma summasiga o'zgartirishlar kiritishga xaqlidirlar.

3.6 Mazkur Shartnomaning bandlari buzilgan taqdirda, «Istemolchi» bilan tegishli dalolatnoma tuziladi va bir oylik ichimlik suvi sarfi shartnomaning 3.2. bandiga asosan jarima sifatida xisoblanadi.

3.7 Belgilangan muxlatda «Iste'molchi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmagan taqdirda, ogoxlantirish xati yuboriladi, «Ta'minot»chi «Istemolchi» ga yetkazishni to'xtatadi va Xo'jalik sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qiladi. Suv yetkazish «Iste'molchi» tomonidan «Ta'minotchi» qarzlarni tuliq amalga oshirgandan so'ng, yoki yozma ravishda qarzlarni to'lash zimmasiga yuklantirilgandan keyin qayta tiklanadi.

3.8. «Suvoqova» bilan shartnoma tuzgan «Iste'molchi» ning ichki suv tarmog'iga boshqa iste'molchilar guruhiga qarashli sub-mijozlar ulangan holda, ushbu sub-mijozlar bilan suv sarfi hisob kitob alohida tuzilgan shartnoma va belgilangan tariflar asosida olib boriladi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlar urtasida kelishmovchilik va nizolar uzaro kelishilgan xolda yechilishi lozim, yechimini topmagan xolla, Uzbekiston Respublikasining amaldagi konunchiligi asosida sud organlariga murojaat kilishlari mumkin.

4.2. Tomonlar urtasidagi shartnoma bekor kilingan taqdirda xam, ular keltirilgan zarar va uzaro karzdorlik javobgarligidan ozod kilinmaydilar.

4.3. Shartnomaning bajarilishida va shartnomada aks ettirilmagan masalalarni xal kilishda tomonlar "Koidalar" asosida ish yuritadilar.

V. SHARTNOMANING AMAL KILISH MUDDATI

5.1. Mazkur shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi hamda 2022 yil «31» dekabrgacha amalda bo'ladi.

5.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

5.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;

- O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.

- Fors-Major xolatlarida

VI. ShARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI

6.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.08.2019 yildagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va 2014 yil 1 yanvardan 122 modda Uzbekiston respublikasining Budget kodeks va O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlarining g'azna ijrosi qoidalari 2016 yil 22 aprelda 2850-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olinishi shartligi va faqat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kirishi nazarda tutilgan

VII. TOMONLARNING YuRIDIK MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.

«TA'MINOTChI»

«Peshku tuman Suvokava

Manzili **Xamid Olimjon kuchasi**

tel/faks _____

x/r 22638000600309412327

bank nomi Buxoro sh., Ipoteka-Bank A.

MFO 00088 INN 201513859

OKONX 90213

Raxbar _____



M. Axmedov



Художественная копия

«ISTE'MOLChI»

Peshku tuman Davlat solik inspeksiyasi

manzili: **Peshku tumani A**

tel/faks: 353-29-91

X/R: 100010860062407011332093001

STIR200883542

OKNX 84119

G'aznachilik bo'lim nomi: **Peshku tumani**

buyicha G'aznachilik bo'linmasi


G'azna x/v **23402000300100001010**

Bank nomi **Markaziybank Toshkent**

shaxar. MFO 00014 G'aznachilik bo'limi

STIRi **201122919**

Raxbar _____



A. Kamolov

